

O'ZBEKISTONDA KAMBAG'ALLIK DARAJASI VA UNI QISQARTIRISHGA QARATILGAN DAVLAT SIYOSATI

Klara Abdurashidova

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

I-bosqich magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda kambag'allik darajasini qisqartirish va unga qaratilgan davlat siyosatini, davlat tomonidan kam ta'minlangan oilalarga qaratilgan ijtimoiy yordamlar taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Kambag'allik, davlat siyosati, qarorlar, ijtimoiy ish, ijtimoiy yordam, inson huquqlari, ijtimoiy hodim, ijtimoiy institutlar, mahalla, temir daftar.

Kambag'allik bu- aholining asosiy ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajadagi moliyaviy, iqtisodiy resurslarning yetishmasligi, kam darajada bo'lishi. Bu ko'pincha aholida moddiy mablag'ning kamligi bilan bog'liq bo'lib, insonlarning kiyim-kechak, uy-joy, sog'liqni saqlash, ta'lim, oziq-ovqat kabi hayotiy va ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yetarli darajada bo'lmasligi tushiniladi. Kambag'allik o'z navbatida moddiy va ijtimoiy resurslarning yetishmasligi darajasiga qarab turlarga ajratishimiz mumkin. Bunga mutloq kambag'allikni kiritamiz va bunda asosan eng yuqori darajadagi ehtiyojlar uchun kerakli bo'gan tovarlar va xizmatlarga ega bo'lmaslik deb aytishimiz mumkin. Yana bir turini oladigan bo'lsa bu- nisbiy kambag'allik hisoblanadi. Kambag'allikning bu turida jamiyatning o'rtacha turmush darajasiga nisbatan past darajada yashash tushuniladi. Buni qanday aniqlashimiz mumkin? Bu odatda aholi o'rtacha daromadining ma'lum foizidan past daromadga ega bo'lganlarni qamrab oladi. Misol uchun bu ko'rsatkich ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida 50%, AQSH da 40% dan past bo'lgan taqdirda nisbiy kambag'allik deya aytiladi. Kambag'allikka sabab bo'luvchi bir qancha omillarni aytib o'tishimiz mumkin. Bular quyidagilar: oila boquvchisining vafot etishi yoki mehnatga layoqatsiz bo'lib

qolishi, ajrimlar, oila boquvchisi ishdan ketishi yoki firmaning yopilishi va hokozolarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda kambag'allik mavjud bo'lgan va ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan aholiga manzilli yordam ko'rsatish maqsadida 2021-yil 1-martdan boshlab mahallalarda "Temir daftar" joriy etildi.

Temir daftar-bu ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti og'ir bo'lgan oilalarni qayd etish, muammolarni aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib boorish bo'yicha ma'lumotlar bazasi. Temir daftarga quyidagi toifadagi oilalar kiritiladi:

- Kam ta'minlangan oila deb e'tirof etilgan oilalar;
- Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo'lgan a'zolari mavjud bo'lgan oilalar;
- Kam ta'minlanga yakka-yolg'izlar va keksalar;
- Boquvchisini yo'qotgan ehtiyojmand oilalar;
- Ko'p(4 va undan ortiq) farzandli moddiy ko'makka muhtoj oilalar;
- Mehnatga layoqatli ishsiz a'zolari mavjud ehtiyojmand oilalar;
- Surunkali va og'ir nogironlikka olib keluvchi kasallikka chalingan va yetarli daromad manmaiga ega bo'lmagan oilalar;
- Noturar joylarda isteqomat qilayotgan, o'zi yoki birgalikda yashovchi oila a'zolarining nomida turar joy bo'lmagan oilalar.

Mahallalarda mahalla yettiligi tomonidan "temir daftar" ga kiritilgan oila a'zolarining bandlidini ta'minlash maqsadida kasbga o'qitish ishlari amalga oshirilmoqda. Mahalla markazlarida o'quv kurslari tashkil etilib, kam ta'minlangan oila vakillari birkirtilmoqda. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad fuqarolarni kasbga yo'naltirib oila farovonligini ta'minlash, o'zlarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga ko'maklashish. Kam taminlangan ayollarga tikuv mashinalari, qandolatchilik elektronikalari(pech, mikser, qolip), to'quv dastgohlari berilmoqda. Kam ta'minlangan ya'ni temir daftarga kiritilgan oila farzandlari oliy ta'lim muassasalarida tehsil olayotgan taqdirda ularning kantrakt summasining

ma'lum miqdori to'lab berilayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Mamlakatimizda yildan yilga kambag'allik darajasining kamayayotganligi albatta quvonarli holat. Bunga yaqqol misol qilib O'zbekistonda 2023-yil kambag'allik darajasi 11 foizni, 2024-yil yakuniga ko'ra 8,9 foizga kamaygan. Bu ko'rsatgich 2025-yilning birinchi yarmiga kelib 6.8 foizga tushdi. Shuni ta'kidlashimiz joizki 2024-yil kambag'allikdan chiqqanlar soni 719 ming kishini tashkil etgan.

Mahallalarda ijtimoiy hodim lavozimining joriy etilishi ijtimoiy yordamlarning manzilli yetib borishiga, tizimli tartibda ro'yhatga olinishiga katta hissa qo'shmoqda.

Ijtimoiy xodim-bu ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishni tashkillashtiradigan yoki bevosita ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi zarur kasbiy malakaga ega bo'lgan shaxs.

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi tepadan pastga emas balki pastdan tepaga ya'ni mahallabay tizimga asoslangan. Ilgari mahalla raisi deyarli barcha ishlarga mas'ul bo'lgan bo'lsa hozirda kambag'allik bilan kurashishga mahalla yettiligi joriy etilgan. Bu tizim xonadonbay ishlash orqali yanada samaraliroq deb hisoblayman. Manzilli olib boriladigan yordamlar aholining aynan yordamga muhtoj oilalariga kirib borish, ularning turmush sharoitlarini shaffof o'rganish va baholash imkonini beradi. Kambag'al oilalarni aniqlashda mahalla yettiligining har biri ajralmas vazifalarni bajaradi va birlarini to'ldirib boriladi. Ya'ni barcha muammolar mahalladan chiqmagan holda amalga oshirilishiga katta imkoniyat yaratadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mamlakatimizda so'nggi yillarda inson huquqlariga bo'lgan e'tibor yanada kuchaydi, inson qadri, uning farovon hayot kechirishiga ko'maklashish kabi ustuvor g'oyalar keng ko'lamda targ'ib etilmoqda. Ayniqsa kambag'allikni oldini olishga, mavjud kambag'llikni kamaytirish uchun davlatimiz bor e'tiborini qaratayotganligi ham ayni haqiqat.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. “Moddiy yordam va ko'makka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.04.2021., 250-son
2. “Aholiga ijtimoiy xizmatlar va yordamlar ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori., 2023-yil 28-sentabr,PQ-319-son
3. <https://lex.uz>
4. <https://uz.wikipedia.org>